

TOSHKENT AXBOROT TEXNOLOGIYALARI UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.09/2025.27.12.T.01.03 RAQAMLI ILMIY KENGASH

DENOV TADBIRKORLIK VA PEDAGOGIKA INSTITUTI

XAYDAROV SHERALI ISLOM O‘G‘LI

SUT BEZI SARATON KASALLIKLARINI ERTA ANIQLASHDA
XATOLIKLARNI MINIMALLASHTIRISHGA ASOSLANGAN
TASHXISLASH ALGORITMI

05.01.03 - Informatikaning nazariy asoslari

TEXNIKA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI

Toshkent – 2026

**Texnika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati
mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по
техническим наукам**

**Contents of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD) on
technical sciences**

Xaydarov Sherali Islom o‘g‘li

Sut bezi saraton kasalliklarini erta aniqlashda xatoliklarni
minimallashtirishga asoslangan tashxislash algoritmi..... 5

Хайдаров Шерали Ислам огли

Алгоритм диагностики, направленный на минимизацию ошибок
при раннем выявлении рака молочной железы..... 21

Khaydarov Sherali

A diagnostic algorithm aimed at minimizing errors in the early
detection of breast cancer 41

E‘lon qilingan ishlar ro‘uxati

Список опубликованных работ

List of published works..... 45

TOSHKENT AXBOROT TEXNOLOGIYALARI UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.09/2025.27.12.T.01.03 RAQAMLI ILMIY KENGASH

DENOV TADBIRKORLIK VA PEDAGOGIKA INSTITUTI

XAYDAROV SHERALI ISLOM O‘G‘LI

SUT BEZI SARATON KASALLIKLARINI ERTA ANIQLASHDA
XATOLIKLARNI MINIMALLASHTIRISHGA ASOSLANGAN
TASHXISLASH ALGORITMI

05.01.03 - Informatikaning nazariy asoslari

TEXNIKA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI

Toshkent – 2026

Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2025.2.PHD/T5627 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Denov tadbirkorlik va pedagogika institutida bajarilgan.
Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasida (www.tuit.uz) va "Ziyonet" axborot ta'lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Mamajanov Rahmatilla Yakubjanovich
texnika fanlari nomzodi, dotsent

Rasmiy opponentlar:

Xudayberdiyev Mirzaakbar Xakkulmirzayevich
texnika fanlari doktori, katta ilmiy xodim

Boboyev Lochinbek Boymurotovich
texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Yetakchi tashkilot:

Farg'ona davlat texnika universiteti

Dissertatsiya himoyasi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti huzuridagi DSc.09/2025.27.12.T.01.03 raqamli Ilmiy kengashning 2026-yil "10" *iyun* soat 16⁰⁰ dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 100084, Toshkent shahri, Amir Temur ko'chasi, 108-uy. Tel.: (99871) 207-59-42, e-mail: ilmiy_kengash@tuit.uz).

Dissertatsiya bilan Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (416 raqam bilan ro'yxatga olingan). (Manzil: 100084, Toshkent shahri, Amir Temur ko'chasi, 108-uy. Tel.: (99871) 238-64-15).

Dissertatsiya avtoreferati 2026-yil "22" *may* kuni tarqatildi.
(2026-yil "22" - *may* dagi 23 -raqamli reestr bayonnomasi.)



[Handwritten signature]

[Handwritten signature]

M.M.Kamilov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash raisi, texnika fanlari doktori, professor, O'zFA akademigi

N.A.Egamberdiyev

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash ilmiy kotibi, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori

N.O.Raximov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash qoshidagi ilmiy seminar raisi, texnika fanlari doktori, dotsent

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiya annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahonda turli manbalar asosida shakllanayotgan, hajmi katta va murakkab tuzilishga ega bo'lgan ma'lumotlar ustida intellektual tahlilni amalga oshirish, ular tarkibidan muhim va informativ belgilarni ajratib olish hamda tashxislash aniqligini oshirish masalalari ma'lumotlarni intellektual tahlili nazariyasi va amaliyoti rivojida yetakchi o'rinlardan birini egallamoqda. Dunyo miqyosida turli sohalarda qo'llanilayotgan ma'lumotlar to'plamlarida ortiqcha, takroriy va shovqinli belgilarning mavjudligi sinflashtirish natijalarining ishonchliligiga salbiy ta'sir ko'rsatib, tashxislash jarayonida xatoliklar kelib chiqishiga sabab bo'lmoqda. Mazkur holat ma'lumotlarga dastlabki ishlov berish, belgilarning muhimlik darajasini baholash, xato qarorlar sonini kamaytirishga qaratilgan samarali algoritmik yondashuvlarni ishlab chiqish hamda ularni amaliyotga joriy etishni taqozo etadi. Shu jihatdan belgilar fazosining o'lchamini qisqartirish, ortiqcha atributlarni bartaraf etish, eng muhim va informativ belgilar majmuasini shakllantirishga qaratilgan ilmiy izlanishlar ustuvor ahamiyat kasb etadi. Shu bilan birga, obyektlarning xususiyatlarini ifodalovchi parametrlar o'rtasidagi bog'liqliklarni aniqlash, ularning ta'sir darajasini baholash hamda tasniflash aniqligini oshirishga xizmat qiluvchi nazariy yondashuvlar va algoritmik ta'minotdan foydalanish muhim ahamiyatga ega hisoblanadi.

Jahonda ko'p o'lchovli, turli manbalardan shakllanuvchi va murakkab tuzilishga ega ma'lumotlar asosida obyektlarni o'zaro yaqinligi va sinf ichidagi o'xshashlik darajalarini baholash, shuningdek muhim va informativ belgilarni ajratib olishga yo'naltirilgan ilmiy-tadqiqot ishlari olib borilmoqda. Bu borada ortiqcha, shovqinli va takroriy belgilarning mavjudligi natijalarning aniqligi hamda ishonchliligiga salbiy ta'sir ko'rsatishi sababli, belgilarni tanlashning yangi intellektual usullarini ishlab chiqishga ehtiyoj ortib bormoqda. Xususan, minimal qamrovli daraxtga asoslangan obyektlar o'rtasidagi o'xshashlik darajalarini aniqlashda mashinali o'qitish usullari yordamida muhim belgilarni saralash hamda taxshlashdagi xatolik ko'rsatkichlarini kamaytirishga qaratilgan algoritmlarni yaratishga alohida e'tibor berilmoqda.

Respublikamizda ham ma'lumotlarga dastlabki ishlov berish, intellektual tahlil qilish, obyektlarni avtomatik guruhlash va tanib olishga qaratilgan algoritmlar hamda apparat-dasturiy komplekslarni yaratish va amaliyotga joriy etish borasida izchil islohotlar amalga oshirilib, muayyan ilmiy-amaliy natijalarga erishilmoqda. "O'zbekiston - 2030" strategiyasining ustuvor yo'nalishlaridan biri bo'lgan "Iqtisodiyotni raqamlashtirish va zamonaviy texnologiyalarni joriy etish" sohasida, jumladan "...iqtisodiyot tarmoqlari, ijtimoiy soha va davlat boshqaruvi tizimini to'liq raqamlashtirish, IT-xizmatlar eksporti hajmini oshirish hamda raqamli infratuzilmani rivojlantirish..."¹ ustuvor vazifalardan biri sifatida belgilangan. Ushbu vazifalarning amaliy yechimini ta'minlashda, jumladan, tibbiyot, ta'lim, sanoat va qishloq xo'jaligi sohaslarida shakllanuvchi katta hajmli ma'lumotlar

¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PF-158-son Farmoni

asosida intellektual qaror qabul qilish tizimlarini ishlab chiqish, tasxislash jarayonlarida xatoliklarni minimallashtirishga asoslangan muhim belgilarni tanlash, tasniflash aniqligini oshirish va xatolik ko'rsatkichlarini kamaytirishga qaratilgan mashinali o'qitish algoritmlarini yaratish muhim ahamiyat kasb etmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvarda "2022-2026-yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF-60-sonli, 2020-yil 29-oktabrdagi "Ilm-fanni 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-6097-sonli, 2024-yil 14-oktabrdagi PQ-358-sonli "Sun'iy intellekt texnologiyalarini 2030-yilga qadar rivojlantirish strategiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2025-yil 29-apreldagi 280-sonli "Respublika ixtisoslashtirilgan endokrinologiya ilmiy-amaliy tibbiyot markazi hamda bolalar onkologiyasi, gematologiyasi va immunologiyasi xizmatlarini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi, 2023-yil 28-dekabrdagi "Sog'liqni saqlash tizimini raqamlashtirishni jadallashtirish hamda ilg'or raqamli texnologiyalarni joriy etish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-415-sonli qarorlari hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga ushbu dissertatsiya ishi muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot Respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining IV. "Axborotlashtirish va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini rivojlantirish" ustuvor yo'nalishi doirasida bajarilgan.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. So'nggi yillarda sut bezi saraton kasalligini erta aniqlash va tashxislash sohasida ilmiy-amaliy tadqiqotlar jadal rivojlanib, kasallikni dastlabki bosqichlarda aniqlash hamda tashxislash aniqligini oshirishga qaratilgan turli yondashuvlar ishlab chiqilmoqda. Ushbu yo'nalishda kasallik belgilari majmuasini shakllantirish, o'quv tanlanmalarini hosil qilish, tibbiy ma'lumotlar asosida bemor holatini baholash, shuningdek tashxislashga mo'ljallangan model, usul va algoritmlarni yaratish hamda takomillashtirishga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Sut bezi saratonini erta aniqlash, diagnostika modellarini ishlab chiqish hamda klinik ma'lumotlar asosida tahlil qilish yo'nalishlarida xorijiy olimlardan R. Barzilay, C.Lehman, K.Lang, S.McKinney, G.Siras, M.Frenk, Li Syuan, Sh.Xuseyn, J.Smit, A.Lopez, K.Vong va olimlar tomonidan tadqiq etilgan. Respublikamizda ma'lumotlarni tahlil qilishning nazariy asoslarini rivojlantirishga M.M.Kamilov, Sh.X.Fozilov, F.T.Adilova, A.X.Nishanov, N.S.Mamatov, B.B.Akbaraliyev va boshqa olimlar muhim hissa qo'shgan. Shuningdek, sut bezi saratonini tashxislash va bashorat qilishga qaratilgan algoritmlar hamda dasturiy vositalarni ishlab chiqish yo'nalishida D.T.Muxamediyeva, O.B.Ro'zibayev va boshqalar tomonidan tadqiqot ishlari amalga oshirilgan.

Mazkur yo'nalishdagi ilmiy ishlar tahlili shuni ko'rsatadiki, mavjud tadqiqotlarda asosan tashxislash modellarini qurishga e'tibor qaratilgan bo'lib, boshlang'ich belgilar fazosidan sinflarni aniq ajratuvchi, yuqori informativlikka ega belgilar majmuasini shakllantirish, ortiqcha va kam ahamiyatli belgilarni chiqarib

tashlash hamda obyektlar o'rtasidagi o'xshashlik darajalarini hisobga olgan holda tashxislash xatoliklarini minimallashtirishga qaratilgan algoritmik yondashuvlar yetarli darajada o'rganilmagan.

Tadqiqotning dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim yoki ilmiy-tadqiqot muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti № SICA-UZ-ISG-2022-004 "Taskin" Surxondaryo viloyati Denov tumani xotin-qizlarni ijtimoiy, iqtisodiy, huquqiy, manfaatlarini himoya qilish axborot markazi Amerika qo'shma shtatlari xalqaro taraqqiyot bo'yicha (USAID) tomonidan moliyalashtiriladigan Markaziy Osiyoda ijtimoiy innovatsiyalar dasturi doirasidagi "Denov404" murojaatlar platformasi ishlab chiqilgan.

Tadqiqotning maqsadi sut bezi saraton kasalliklarini erta aniqlashda tashxislash xatoliklarini minimallashtirish algoritmini ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

sut bezi saratoni kasalliklari klinik ma'lumotlariga oid dastlabki ishlov berish usul va algoritmlari tahlili;

obyektlarni tashxislashda minimal qamrovli daraxt yondashuviga asoslangan klasterlash algoritmini ishlab chiqish;

obyektlarni sinflashtirish xatolik koeffitsiyenti va ehtimollar nazariyasiga asoslangan informativ belgilar majmuasini tanlash algoritmini ishlab chiqish;

informativ belgilar fazosida sinflar obyektlari o'xshashlik darajalari farqi va tashxislashdagi xatoliklarni minimallashtirishga asoslangan tashxislash algoritmini ishlab chiqish;

tibbiyotda sut bezi saratoni kasalliklarini erta tashxislash dasturini ishlab chiqish va amaliyotga tadbiq qilish.

Tadqiqot obyekti ma'lumotlarni intellektual tahlilida tibbiy ma'lumotlarga dastlabki ishlov berish, klasterlash va obyektlarni tashxislashda xatoliklarni minimallashtirish jarayonlari.

Tadqiqot predmeti obyektlarni tashxislashda ma'lumotlarga dastlabki ishlov berish, mikro klasterlashga asoslangan klasterlash, informativ belgilar majmuasini tanlash va xatoliklarni minimallashtirishga asoslangan tashxislash algoritmlari hamda dasturlardan iborat.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqot jarayonida tibbiy ma'lumotlarga dastlabki ishlov berish, etalon aniqligini oshirishga qaratilgan mikro klasterlash, informativ belgilarni tanlashda xatolik koeffisienti va ehtimollik nazariyasi, erta tashxislash usullaridan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

sut bezi saratoniga oid klinik ma'lumotlarda uchraydigan shovqinli, takroriy, yetishmaydigan va nomuvofiq qiymatlarni aniqlash hamda bartaraf etishga qaratilgan dastlabki ishlov berishning adaptiv tozalash algoritmi ehtimollik nazariyasiga asoslangan holda takomillashtirilgan;

obyektlarni tashxislashda yaqinlik va o'xshashlik darajalarini hisobga olingan holda guruhlash aniqligini oshirishga qaratilgan mikro klasterlashning minimal qamrovli daraxtga asoslangan algoritmi ishlab chiqilgan;

obyektlarni sinflashtirishda xatolik koeffitsiyenti va ehtimollar nazariyasi asosida belgilarning ahamiyat darajasini baholash hamda eng muhim xususiyatlarni

ajratib olishga qaratilgan informativ belgilar majmuasini tanlash algoritmi ishlab chiqilgan;

informativ belgilar fazosida sinflar obyektlarining o'xshashlik darajalari farqini aniqlash, tashxislash jarayonida yuzaga keladigan xatoliklarni minimallashtirish, hamda qaror qabul qilish aniqligini oshirishga qaratilgan tashxislash algoritmi ishlab chiqilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

tibbiy ma'lumotlarga dastlabki ishlov berishning adaptiv tozalash va shovqinlarni bartaraf etishga yo'naltirilgan ko'p bosqichli takomillashtirilgan algoritmi kesimida dastur ishlab chiqilgan;

obyektlarni klasterlashda minimal qamrovli daraxtga asoslangan mikroklasterlash va tasniflash algoritmlari kesimida dasturiy vosita ishlab chiqilgan;

sut bezi saratonini erta tashxislashda xatoliklarni minimallashtirilga qaratilgan informativ belgilarni tanlash algoritmidan iborat dastur ishlab chiqilgan;

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Taklif etilayotgan xatoliklarni minimallashtirish algoritmlarining ishonchliligi ma'lumotlar sifatini oshirishda adaptiv tozalash usullari va shovqinli belgilarni bartaraf etish algoritmlari, informativ belgilarni tanlash samaradorligini ta'minlashda statistik mezonlar, xatolik koeffitsiyentlari va obyektlarni klasterlashda minimal qamrovli daraxtga asoslangan mikroklasterlash, tasniflash algoritmlari, xatoliklarning kamayishi va natijalar aniqligining oshirish algoritmlari ishlab chiqilganliklari bilan tasdiqlangan. Bunda ko'p bosqichli yondashuv tadqiqotning metodologik jihatdan mustahkamligi va natijalarning ishonchliligini kafolatlaydi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati sut bezi saratoni klinik ma'lumotlariga dastlabki ishlov berishning adaptiv tozalash algoritmini takomillashtirish, minimal qamrovli daraxtga asoslangan mikroklasterlash algoritmini ishlab chiqish hamda xatolik koeffitsiyenti va ehtimollar nazariyasiga asoslangan holda informativ belgilar majmuasini tanlash usullarini yaratish bilan izohlanadi. Shuningdek, informativ belgilar fazosida obyektlar o'rtasidagi o'xshashlik darajalari farqiga asoslangan tashxislash algoritmining ishlab chiqilishi tasniflash aniqligini oshirish va model murakkabligini kamaytirish imkonini beradi, bu esa ma'lumotlarni tahlil qilish jarayonining samaradorligini oshiradi va ilmiy jihatdan muhim natijalar bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati ishlab chiqilgan algoritmlar asosida sut bezi saratonini erta tashxislashga mo'ljallangan "Smartdiagnosis" dasturiy majmuasining yaratilganligi bilan izohlanadi. Ushbu dasturiy vosita tibbiyot muassasalarida klinik va mammografiya ma'lumotlarini tahlil qilish, tashxislash aniqligini oshirish hamda shifokorlarga qaror qabul qilish jarayonida ko'maklashishga xizmat qiladi, bu esa tashxislash jarayonida xatoliklarni kamaytirish va natijalar ishonchliligini oshirish imkonini beradi va amaliy jihatdan muhim natijalar bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Tadqiqotda ishlab chiqilgan sut bezi saraton kasalliklarini erta aniqlashda xatoliklarni minimallashtirishga asoslangan

tashxislash algoritmi va «Smartdiagnosis» dasturiy majmuasidan foydalanish bo'yicha olingan natijalar asosida:

sut bezi saratoniga oid klinik ma'lumotlarga dastlabki ishlov berishning ehtimollik nazariyasiga asoslangan adaptiv tozalash algoritmi ishlab chiqilgan va "SBSK" dasturi O'zbekiston Respublikasi Surxondaryo viloyati Termiz shahar "Respublika ixtisoslashtirilgan onkologiya va radiologiya ilmiy-amaliy tibbiyot markazi Surxondaryo filiali"da tashxislash jarayonlarini takomillashtirish maqsadida amaliyotga joriy qilingan (O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligining 2025-yil 5-noyabrdagi 02-28/26482-son ma'lumotnomasi). Natijada sut bezi saratonini tavsiflovchi 32 ta simptom belgidan tashxislash uchun eng muhim bo'lgan 18 ta informativ belgilar majmuasi tanlab olingan hamda ushbu belgilar asosida tashxis qo'yishga ketadigan vaqt 20-25 foizga qisqartirilgan va tashxis ishonchliligi 20 foizga oshirilgan;

obyektlarni yaqinlik va o'xshashlik darajalari orqali tashxislashda minimal qamrovli daraxt asosidagi mikroklasterlash algoritmi ishlab chiqilgan va "Smartdiagnosis" dasturi O'zbekiston Respublikasi Surxondaryo viloyati Termiz shahar "Toshkent davlat tibbiyot universiteti Termiz filiali"da tashxislash jarayonlarini takomillashtirish va qaror qabul qilishni qo'llab-quvvatlash maqsadida amaliyotga joriy qilingan (O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligining 2025-yil 5-noyabrdagi 02-28/26482-son ma'lumotnomasi). Natijada tanlangan informativ belgilar majmuasidan foydalanib kasallikka tashxis qo'yishga ketadigan vaqt 1,5 barobarga qisqartirilgan va tashxislash samaradorligi 1,7 barobarga oshirilgan.

obyektlarni tashxislashdagi xatoliklarni minimallashtirishda informativ belgilar fazosida xatolik koeffisienti kamaytirishga qaratilgan tashxislash algoritmi ishlab chiqilgan va "Smartdiagnosis" dasturi O'zbekiston Respublikasi Surxondaryo viloyati Termiz shahar "O'tan Polvon diagnostika va davolash markazi"da tashxislash samaradorligini oshirish maqsadida amaliyotga joriy qilingan (O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligining 2025-yil 5-noyabrdagi 02-28/26482-son ma'lumotnomasi). Natijada ishlab chiqilgan algoritmlar asosida sut bezi saratonini tashxislash jarayonlari avtomatlashtirildi hamda diagnostika jarayonining ishonchliligi 20 foizga oshirishi tasdiqlangan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Dissertatsiyaning asosiy nazariy hamda amaliy natijalari 5 ta xalqaro va 3 ta respublika ilmiy-texnika hamda ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokama qilingan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Tadqiqot mavzusi bo'yicha jami 20 ta ilmiy ish chop etilgan, shulardan, O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etishga tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 9 ta maqola, 3 ta xorijiy va 6 ta respublika jurnallarida nashr qilingan hamda 3 ta EHM uchun dasturiy mahsulot qayd etilganligi haqida guvohnoma olingan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, to'rt bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan iborat. Dissertatsiyaning hajmi 118 betni tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida dissertasiya mavzusining dolzarbligi va zaruriyati asoslangan, tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi, mavzuning o'rganilganlik darajasi, dissertasiya bajarilgan oliy ta'lim muassasi ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi ko'rsatilgan, dissertasiyaning maqsadi, vazifalari, obyekti, predmeti, usullari tavsiflangan, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari, tadqiqot natijalarining ishonchliligi, olingan natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati ochib berilgan, tadqiqot natijalarining joriy qilinishi, tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi, nashr etilgan ishlar va dissertasiya tuzilishi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning **“Sut bezi saraton kasalliklarini erta aniqlash usul va algoritmlari tahlili”** deb nomlangan birinchi bobida zamonaviy texnologiyalarda mashinali o'qitish usullari, saraton kasalligini aniqlashda ancha yuqori aniqlik va samaradorlikni ta'minlashi bayon etilgan. Ushbu texnologiyalar tibbiy ma'lumotlarni tahlil qilish, kasallikning diagnostik xususiyatlarini aniqlash va qarorlarni qabul qilish jarayonlarini avtomatlashtirish imkoniyatini beradi.

1.1-paragrafda sut bezi saraton kasalliklarini simptonlarni mashinali o'qitishga tayyorlash bosqichlari, belgilarda axboriy muhimlik tushunchasining ilmiy asosi, klinik belgilarning informativ muhimligi to'g'risida batafsil tahliliy ma'lumotlar keltirilgan.

1.2-paragrafda saraton kasalliklarini erta aniqlashdagi zamonaviy yondashuvlar, saraton kasalliklarini erta aniqlashning davolash samaradorligini oshirishdagi ahamiyati hamda tasviriy diagnostika, biomarkerlar va genetik ma'lumotlar asosida zamonaviy sun'iy intellekt algoritmlari yordamida yuqori aniqlikdagi tashxis qo'yish imkoniyatlari tahlil qilingan.

1.3-paragrafda saraton kasalliklarini aniqlash mezonlari va algoritmlari, saraton kasalliklarini aniqlashda qo'llaniladigan klinik, laboratoriya, tasviriy, gistologik va biomarker mezonlari, shuningdek sun'iy intellekt va mashinani o'rganish algoritmlariga asoslangan zamonaviy diagnostika yondashuvlari o'rganilgan va asoslab berilgan.

1.4-paragrafda dissertasiya ishining asosiy masalasi qo'yilishi bayon etilgan bo'lib, tashxislashdagi xatolarni minimallashtirishga asoslangan optimizatsiya masalasining qo'yilishi va ularni yechishga doir yondashuvlar keltirilgan.

Faraz qilaylik, X o'quv tanlanma quyidagi ko'rinishida berilgan bo'lsin, ya'ni

$$\begin{aligned} X &= \bigcup_{p=1}^r X_p, X_p \cap X_q = \emptyset, p \neq q, \quad p, q = \overline{1, r}, \\ X_p &= \{x_{pi} = (x_{pi}^1, x_{pi}^2, \dots, x_{pi}^N): i = \overline{1, m_p}\} \end{aligned} \quad (1)$$

bu yerda r - sinflar soni, X_p -sinflar ($p = \overline{1, r}$), m_p - X_p sinfdagi obyektlar soni ifodalaydi. Obyektlarni tavsiflovchi optimal informativ tizimlarni shakllantirishda foydalaniladigan $\lambda = (\lambda^1, \lambda^2, \dots, \lambda^N)$ -informativlik vektoriga tegishli ba'zi tushunchalar keltiriladi. Berilgan λ vektorga nisbatan obyektlarni tavsiflovchi informativ tizimni quyidagicha (2) bilan aniqlanadi.

$$\lambda: X \rightarrow X|_{\lambda} = \{x | x = (\lambda^1 x^1, \lambda^2 x^2, \dots, \lambda^N x^N)\} \quad (2)$$

Ta'rif. Agar $\sum_{j=1}^N \lambda^j = \ell$ bo'lsa, u holda $\lambda = (\lambda^1, \lambda^2, \dots, \lambda^N)$ vektor ℓ informativ deyiladi. Barcha ℓ informativ vektorlar to'plamini Λ^ℓ orqali ifodalaydi.

$$\Lambda^\ell = \{ \lambda: \sum_{j=1}^N \lambda^j = \ell, \lambda^j \in \{0,1\}, j = \overline{1, N} \} \quad (3)$$

(3) ifodada ko'rinib turibdiki, Λ^ℓ to'plam quvvati quyidagiga teng $|\Lambda^\ell| = C_N^\ell = \frac{N!}{\ell!(N-\ell)!}$, u holda $\Lambda^\ell: X \rightarrow X|_{\Lambda^\ell} = \{X|_\lambda \mid \lambda \in \Lambda^\ell\}$ ifodalaydi. Bundan tashqari, ℓ informativ vektorlar Λ^ℓ to'plami berilgan bo'lib, ixtiyoriy $\lambda \in \Lambda^\ell$ vektorga mos obyektlarni tavsiflovchi informativ tizimlar quyidagicha aniqlanadi.

$$\lambda: X \rightarrow X|_\lambda, \quad X|_\lambda = \{x \in X: x = (\lambda^1 x^1, \lambda^2 x^2, \dots, \lambda^N x^N), \sum_{i=1}^N \lambda^i = \ell\}. \quad (4)$$

Ma'lumotlar intellektual tahlilida o'quv tanlanma obyektlari turli o'lchovdagi belgilar fazosida, ya'ni bitta o'lchovdagi belgilar fazosidan boshqa o'lchovli belgilar fazosiga o'tganda, o'zlarini qanday tutishini aniqlash muhim hisoblanadi. Masalan, sinflashtirish masalasi hal qilinayotganda, belgilar fazosini o'lchovini o'zgartirish natijasida, ba'zi obyektlar o'z sinflariga emas, balki boshqa sinfga o'tib qolishi mumkin, ya'ni

$$\exists x \in X, \lambda \in \Lambda^{\ell_1}, \mu \in \Lambda^{\ell_2}, \ell_1 \neq \ell_2 \text{ uchun } x|_\lambda \in X_p, x|_\mu \in X_q, p \neq q.$$

Bunday holatlarni aniqlash va ularning oldini olish maqsadida belgilar fazosi o'lchovini kamaytirish jarayonida sinflashtirishdagi xatoliklar inobatga olinadi.

Faraz qilaylik, ℓ informativ vektorni λ vektorga nisbatan sinflashtirishdagi xatoliklar koeffitsiyenti $\theta(\ell)|_\lambda$ va o'z sinfini topa olmagan, ya'ni noto'g'ri sinflashtirilgan obyektlar soni $\kappa(\ell)|_\lambda$ bo'lsin. Sinflashtirishdagi xatoliklar koeffitsiyenti bilan noto'g'ri sinflashtirilgan obyektlar soni orasidagi bog'liqlikni quyidagicha aniqlaymiz.

$$\theta(\ell)|_\lambda = \frac{\kappa(\ell)|_\lambda}{m} \quad (5)$$

bu yerda $m = \sum_{p=1}^r m_p$ - o'quv tanlanmadagi obyektlarning umumiy soni.

Izoh. Agar aynan qaysidir sinf (sinflar) obyektlari boshqa sinfga yoki aksincha, boshqa sinf obyektlari shu sinf (sinflar)ga adashib o'tib qolmasligi muhim bo'lsa, u holda sinflashtirishdagi xatoliklar koeffitsiyentini aniqlashda sinflarning muhimlik darajasini ham e'tiborga olish lozim bo'ladi.

Masalan X_p sinf obyektini boshqa sinfga adashib o'tib qolmaslik muhimlik darajasi α_p va aksincha boshqa sinf obyektining bu sinfga adashib o'tib qolmasligining muhimlik darajasi β_p bo'lsin. U holda X_p sinf uchun noto'g'ri sinflashtirilgan obyektlar sonini muhimlik darajasiga ko'ra quyidagicha aniqlash mumkin.

$$\kappa(\ell)|_\lambda(X_p) = \alpha_p \cdot t_p^{out}|_\lambda + \beta_p \cdot t_p^{in}|_\lambda \quad (6)$$

bu yerda t_p^{out} va t_p^{in} mos ravishda X_p sinfdan xato chiqib ketgan va qo'shib qolgan obyektlar soni ifodalaydi, (5) ga asosan (6) quyidagi ko'rinishga ega bo'ladi:

$$\theta(\ell)|_\lambda = \frac{\sum_{p=1}^r (\alpha_p \cdot t_p^{out}|_\lambda + \beta_p \cdot t_p^{in}|_\lambda)}{m} \quad (7)$$

Nominal belgilar fazosida sinflashtirishdagi xatoliklarni minimallashtirishda informativ belgilar majmuasini tanlash talab etilsin, ya'ni quyidagi optimizatsiya masalasi yechilsin.

$$\begin{cases} \theta(\ell)|_{\lambda} = \frac{x(\ell)|_{\lambda}}{m} \rightarrow \min \\ \Lambda^{\ell} = \{ \lambda: \sum_{j=1}^N \lambda^j = \ell, \lambda^j \in \{0,1\}, j = \overline{1, N} \} \end{cases} \quad (8)$$

Dissertatsiyaning “**Tibbiy obyektlarni sinflashtirishda xatoliklarni minimallashtirishga asoslangan algoritmlar**” deb nomlangan ikkinchi bobida sut bezi saratoni bo‘yicha tibbiy ma’lumotlarni adaptiv tozalash algoritmlari asosida umumiy tanlanma shakllantirildi. Shuningdek, takomillashtirilgan MSTL klasterlash algoritmi asosida mikro-klasterlash va makro-klasterlash jarayonlarini amalga oshirish imkoniyatlari asoslab berilgan.

2.1- paragrafda sut bezi saratoniga oid tibbiy ma’lumotlarni adaptiv tozalash algoritmi mavzusida umumiy tanlanmadagi obyektlarni ichidagi xato kirib qolgan belgilarni tozalab ehtimollikga asoslanib eng ko‘p uchraydigan belini qo‘yish orqali yangi umumiy tanlanmani hosil qilindi. “Sut bezi saratoni kasalligi belgilari va ularning qabul qiladigan qiymatlari” keltirilgan(1-jadval).

1-jadval.

Sut bezi saratoni kasalligi belgilari va ularning qabul qiladigan qiymatlari

Belgilar	Sut bezi onkologiyasi kasallik belgilari nomlanishi	Belgilarning qabul qilishi mumkin bo‘lgan qiymatlari
x^1	Sizda kasallik nechi yoshda boshlangan?	1. Kasallik yuq 2. 17-30 yoshda 3. 30-50 yoshda 4. 50 yoshdan keyin
x^2	Sizni sut bezingizda xosila(o‘sma) bormi?	1. Yo‘q
x^3	Sizda umumiy xolsizlik(darmonsizlik) kuzatiladimi?	1. Yo‘q 2. Yengil(o‘rta)
...		
x^{32}	Siz saqlanish uchun muntazam ravishda kontrasepsiya yoki terapevtik garmon preparatlarini qabul qilasizmi?	1. Yo‘q 2. Ha

Sut bezi saratoniga oid tibbiy ma’lumotlarni adaptiv tozalash algoritmi doirasida klinik belgilar tartibli nominal qiymatlar asosida baholangan bo‘lib, ushbu belgilar klinik tajriba va amaliyotga tayangan holda shifokor-ekspertlar tomonidan oldindan kodlangan. Tadqiqotda shakllantirilgan umumiy o‘quv tanlama real klinik kuzatuvlarga asoslanib, unda har bir satr alohida bemorni, har bir ustun esa muayyan klinik belgini ifodalaydi hamda keyingi intellektual tahlil va klasterlash algoritmlari uchun asosiy ma’lumotlar bazasi vazifasini bajaradi.

Adaptiv tozalash algoritmi quyidagi qadamlarda amalga oshiriladi.

1-qadam. Boshlang‘ich ma’lumotlarni kiritish

$$X = \{x_1, x_2, \dots, x_m\}, x_i = (x_i^1, \dots, x_i^N), i = \overline{1, m}$$

2-qadam. Har bir nominal belgi qiymati mumkin bo‘lgan qiymatlar to‘plamiga mosligi tekshiriladi.

$$x_i^j = \begin{cases} x_i^j, & x_i^j \in \Omega_j, \\ \emptyset, & \text{aks holda} \end{cases} \quad (9)$$

bu yerda Ω_j - j-belgining mumkin bo'lgan qiymatlar to'plami.

3-qadam. Adaptiv tozalash va bo'sh qiymatlarni to'ldirish. Har bir j -belgi uchun eng ko'p uchraydigan qiymat aniqlanadi

$$v_j = \operatorname{argmax}_{v \in \Omega_j} P(x^j = v) \quad (10)$$

bu yerda

$$P(x^j = v) = \frac{\operatorname{count}(x^j=v)}{m} \quad (11)$$

Bo'sh qiymatlar ochiq qoldirilmaydi va quyidagi qoida asosida to'ldiriladi.

$$x_i^j = \begin{cases} x_i^j, & x_i^j \neq \emptyset \\ v_j, & \text{aks holda} \end{cases} \quad (12)$$

4-qadam. Yakuniy tanlanmani shakllantirish. Adaptiv tozalash va o'xshashlik darajasini baholash bosqichlari natijasida umumiy tanlanma shakllantirildi(1-rasm).

$$X = \tilde{X} = \{\tilde{x}_1, \tilde{x}_2, \dots, \tilde{x}_m\} \quad (13)$$

№	Sizda kasallik nechi yoshda boshlangan?	Sizni sut bezingizda xosila(o'sma) bormi?	Sizda umumiy xosizlik(darmonsizlik) kuzatladimi?	Sizda kasallikni qanchadan beri rivojlangan deb bilasiz?	Sizni nashingizda (onasi-opa-singillar, amma -volalarda) kasallar bo'lganmi?	Sizni yelkaming pastki sohasidagi og'riqlar bormi?	Xosila(o'sma)ning qo'ltiq ostida kattalashgan limfa tugunlari mavjudmi?	Sizning sut bezining o'lchami qanday?	...	Turmushga necha yoshda chiqqansiz?	Siz nechi yoshda farzandli bo'lgansiz?	Sizni vazningizda o'zgarish bormi?	Sizni sut bezingizda tugunli xosilani sezasizmi?	Sut bezidagi xosilani (bez) ushlab kurganizda harakatlanadimi?	Sut bezidagi xosilani chegaralari aniqmi	Sut bezidagi o'smaning holati qanday	Saqlanish uchun siz muntazam ravishda konroseptom garmon preparatlarini qabul qilasizmi
	X1	X2	X3	X4	X5	X6	X7	X8	...	X25	X26	X27	X28	X29	X30	X31	X32
1	4	2	2	2	1	2	2	2	...	2	2	3	2	1	2	1	1
2	3	2	2	2	1	1	1	1	...	3	3	1	1	2	2	1	2
3	3	2	2	3	1	1	2	2	...	1	1	1	1	2	2	1	1
:	:	:	:	:	:	:	:	:	:	:	:	:	:	:	:	...
563	3	2	3	2	1	1	2	1	...	2	2	1	2	1	2	3	1
564	4	2	3	2	1	1	2	2	...	2	2	1	2	2	2	3	1
565	3	2	3	3	1	3	1	1	...	2	2	1	2	2	1	3	1
566	3	2	3	2	1	1	2	2	...	1	1	1	2	1	1	3	1
567	3	2	3	2	1	1	2	1	...	2	2	3	2	1	1	3	1

1-rasm. Umumiy tanlama

Taklif etilgan adaptiv tozalash algoritmi sut bezi saratoniga oid nominal klinik ma'lumotlarni qo'shimcha kodlash amallarini talab etmasdan ularning sifatini yaxshilashga yo'naltirilgan. Ushbu yondashuv ma'lumotlardagi noaniqlik va bo'sh qiymatlarni bartaraf etish orqali yuqori o'lchamli nominal fazoda klasterlash va tasniflash jarayonlarining aniqligi hamda barqarorligini oshirishni ta'minlaydi.

2.2-paragrafda minimum spanning tree (MST) asosidagi mikroagregatsiya algoritmi orqali ma'lumotlar kamida k ta elementdan iborat guruhlariga ajratiladi. Har bir guruh o'z ichidagi elementlar o'rtasidagi o'xshashlik darajasiga asoslangan holda aniqlangan vakil qiymat bilan ifodalanadi. Guruhlarni shakllantirish jarayoni

ma'lumot yo'qotilishini minimallashtirish mezoniga asoslanadi. MST tuzilmasi asosida obyektlar o'rtasidagi eng yaqin bog'lanishlar aniqlanadi.

Takomillashtirilgan MSTL klasterlash algoritmi.

1-qadam. Faraz qilaylik, X o'quv tanlanma quyidagi ko'rinishida berilgan bo'lsin, ya'ni

$$X = \bigcup_{p=1}^r X_p, X_p \cap X_q = \emptyset, p \neq q, p, q = \overline{1, r}, \quad (14)$$

$$X_p = \{x_{pi} = (x_{pi}^1, x_{pi}^2, \dots, x_{pi}^N) : i = \overline{1, m_p}\},$$

bu yerda r - sinflar soni, X_p - sinflar ($p = \overline{1, r}$), m_p - X_p sinfdagi obyektlar soni, x_{pi} - p -sinfdagi i -obyekti, x_{pi}^j - p - sinfdagi i - obyektning j - belgisi ifodalaydi.

Klasterlash masalasini yechish uchun obyektlararo o'xshashlik funksiyasi kiritildi.

2-qadam. Nominal belgilar fazosida x_{pi} va x_{pq} obyektlarining j -belgisiga mos o'xshashligini ko'rsatuvchi kattalik

$$\rho_{pi}^j(x_{pi}, x_{pq}) = \begin{cases} 1, & \text{agar } x_{pi}^j = x_{pq}^j \\ 0, & \text{aks holda} \end{cases} \quad (15)$$

bu yerda $p = \overline{1, r}$; $i \neq q = \overline{1, m_p}$; $j = \overline{1, N}$; Mazkur kattalik har bir belgi bo'yicha obyektlar o'xshashligini ifodalaydi. Obyektlar orasidagi umumiy o'xshashlik ushbu qiymatlarning o'rtacha arifmetikasi sifatida aniqlanadi.

$$\rho(x_{pi}, x_{pq}) = \frac{1}{N} \sum_{j=1}^N \rho_{pi}^j(x_{pi}, x_{pq}) \quad (16)$$

3-qadam. Har bir x_{pi} obyekt uchun r_p o'xshashlik chegarasi ichidagi qo'shnilar aniqlanadi. Radius r_p qiymati X_p sinfdagi obyektlarning k -eng yaqin qo'shnilariga mos keluvchi o'xshashlik qiymatlarining o'rtacha qiymati asosida aniqlanadi.

$$r_p = \frac{1}{m_p} \sum_{i=1}^{m_p} \rho^{(k)}(x_{pi}), \quad K_i = \{x_{pq} \in X \mid \rho_{pi}(x_{pi}, x_{pq}) \geq r_p\} \quad (17)$$

Agar

$$|K_i| \geq \text{MinPts}, \quad (18)$$

shart bajarilsa, x_{pi} obyekt mikro - klaster markazi bo'ladi.

$$|K_i| \geq k \Rightarrow x_{pi} \text{ mikro-klaster markazi}$$

$\rho^{(k)}(x_{pi})$ - x_{pi} obyektning k -eng yaqin qo'shnisiga mos umumiy o'xshashlik qiymati, m_p - X_p sinfidagi obyektlar soni, $|K_i|$ - ushbu markazga mos kelgan qo'shnilar soni ifodalaydi.

4-qadam. Mikroagregatsiya jarayonida klasterlash samaradorligini baholash uchun yo'qotish funksiyalari sifatida SSE(sum of squared errors) va SST(total sum of squares) ko'rsatkichlaridan foydalaniladi. Ushbu ko'rsatkichlar obyektlarning klaster ichidagi va umumiy tarqoqlik darajasini miqdoriy baholash imkonini beradi.

$$\sum_{p=1}^r m_p = M, SSE = \frac{1}{M} \sum_{p=1}^r \sum_{i=1}^{m_p} (\rho_{pi}(x_{pi}, \bar{x}_p))^2, SST = \frac{1}{m_p} \sum_{i=1}^{m_p} \rho_{pi}(x_{pi}, \bar{x})^2 \quad (19)$$

SSE-klaster ichidagi obyektlarning klaster markaziga nisbatan hisoblangan ichki tarqoqlik mezoni.

SST-barcha obyektlarning umumiy markazga nisbatan hisoblangan umumiy

tarqoqlik mezoni.


bu yerda x_{pi} -p-sinfning i -obyekti, \bar{x}_p -p-sinfning markaziy (o'rtacha) qiymati, \bar{x} - barcha obyektlarning umumiy o'rtacha qiymati; m_p - p-sinfidagi obyektlar soni ifodalaydi.

5-qadam. L klasterlash sifatini baholovchi ko'rsatkich bo'lib, SSE va SST nisbatini ifodalaydi.

$$L = \frac{SSE}{SST} \rightarrow \max \quad (20)$$

L qiymatining ortib borishi klasterlash aniqligining oshishini bildiradi. $L = 1$ bo'lsa mukammal klasterlash ega bo'ladi.

Ishlab chiqilgan algoritm asosida klasterlash jarayoni amalga oshiriladi. Natijada 2-rasmda sinflardagi obyektlar sonining sinflar bo'yicha taqsimoti diagrammasi hosil bo'ladi.



2-rasm. Sinflardagi obyektlar sonining sinflar bo'yicha taqsimoti

2.3-paragrafda sut bezi saratoni kasalligi o'quv tanlanmasini normallashtirishda sintetik obyektlarni shakllantirish algoritmi va ularning mazmunini aniqlab beruvchi mezonlar, yarim sintetik o'quv tanlanmani yaratish algoritmi ishlab chiqilgan bo'lib, ushbu algoritm nominal belgilar fazosi uchun sintetik obyektlar yaratishda obyektlarning baholash orqali yangi kengaytirilgan datasetni yaratishga qaratilgan.

Sintetik o'quv tanlanma yaratish algoritmi

1-qadam. Umumiy o'quv tanlanma obyektlari ma'lumotlar bazasiga kiritiladi. Boshlang'ich ma'lumotlar bazasi barcha $x_i \in X, i = \overline{1, M}$ obyektlar kesimida shakllantiriladi.

2-qadam. Ma'lumotlarga dastlabki ishlov berish jarayoni amalga oshiriladi. Bunda ma'lumotlarni tozalash ya'ni to'plangan ma'lumotlarda xatolar, yo'qolgan qiymatlar, nusxalar yoki noaniq ma'lumotlar bo'lishi mumkin. Bular to'g'rilanadi va ma'lumotlar normirovka qilinadi.

3-qadam. Umumiy o'quv tanlanma oldindan quyidagi obyektlar $x_{p1}, x_{p2}, \dots, x_{pm_p} \in X_p, p = \overline{1, r}$ sinflarga ajratiladi.

4- qadam. Shakllantirilgan har bir sinf uchun obyektlarning o'rta o'xshashligi $\Gamma_p(X_p), p = \overline{1, r}$ ning qiymatlari aniqlanadi.

5-qadam. Yangi \bar{x} obyektini X_p , $p = \overline{1, r}$ sinflari uchun ushbu sinfdagi obyektning o'rtacha o'xshashlik darajasi $\Gamma_p(X_p)$ ning ko'tarilishini ta'minlagan muhim belgilari saqlangan holda yaratiladi.

6-qadam. Agarda p -sinfda obyektlar soni $m_p = 1$ bo'lsa, u holda sintetik obyekt yaratilganda sinfdagi obyektning boshqa sinflar obyektlaridan ajralib turadigan belgilari saqlangan holda yaratiladi.

7-qadam. 5-6 - qadamlar har bir sinfga H ta yangi sintetik obyektlar qo'shilgunicha davom etadi. Natijada gibrid tanlamadan iborat sinflar paydo bo'ladi.

Dissertatsiya ishining **“Sut bezi saratoni kasalliklarini erta aniqlash algoritmlari va inovatsion yondashuvlar”** deb nomlangan uchinchi bobida tasniflash va bashoratlash tizimlarida informativ belgilar majmuasini tanlash xatoliklarni minimallashtirishda muhim ahamiyatga ega bo'lib, kam ahamiyatli va shovqinli belgilarni chiqarib tashlash orqali modelning aniqligi va umumlashtirish qobiliyatini oshiradi.

3.1-paragrafda tasniflashda informativ belgilar majmuasini tanlashning xatoliklarni minimallashtirishga asoslangan algoritmini takomillashtirish orqali tasniflashdagi xatoliklarni kamaytirish masalasi o'rganiladi. Bunda ma'lumotlar o'lchamini pasaytirish, diagnostik va bashorat qilish aniqligini oshirish hamda hisoblash samaradorligini yaxshilash kabi vazifalarni amalga oshirish ko'zda tutilgan. Shuningdek, amaliy tajribada qo'llanilayotgan algoritmlar tahlil qilinadi va ularning xatolikka ta'siri solishtirildi.

Xatolikni minimallashtirishga qaratilgan informativ belgilarini tanlash algoritmi quyidagicha qadamlarda hisoblanadi.

1-qadam. Boshlang'ich ma'lumotlar.

X - o'quv tanlanma; $X_p(p = \overline{1, r})$ - sinflar; r - sinflar soni; $k, \ell, N, \theta, T, i, p, \mu$.

2-qadam. $\lambda \in \Lambda^N$ uchun $\kappa(\ell)|_\lambda$ ba $\theta = \theta(\ell)|_\lambda$ hisoblanadi.

3-qadam. $i = k$

4-qadam. $v = 1$ da $p_v = (p_v^1, p_v^2, \dots, p_v^N)$ uchun $p_v^j = \frac{1}{N}; j = \overline{1, N}$ qiymatlar qabul qilinadi.

5-qadam. Barcha $\mu_i = \left\{ \underbrace{0, 0, \dots, 0}_{N-i}, \underbrace{1, 1, \dots, 1}_i \right\}$, $\mu \frac{N!}{i!(N-i)!} = \left\{ \underbrace{1, 1, \dots, 1}_i \underbrace{0, 0, \dots, 0}_{N-i} \right\}$, $\mu \in \Lambda^i$ vektorlar uchun $\theta(N-i)|_{\lambda-\mu}$ ba $\theta(i)|_\mu$ lar hisoblanadi.

6-qadam. Barcha μ vektorlar uchun agar $\theta(N-i)|_{\lambda-\mu} \leq \theta$ o'rinli bo'lsa, $p_{v+1}(\mu) = p_v + \frac{(p_v, \mu)}{N-i} * p_v|_{\lambda-\mu} - p_v|_\mu$ deb o'zlashtiriladi.

